

SUN'IY INTELEKTNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI**ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА
ЭКОНОМИКУ УЗБЕКИСТАНА****THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON UZBEKISTAN'S
ECONOMY**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich
I-92/21 guruh talabasi
Egamqulov Komil Abdirashid o'g'li*

Anotatsiya: Butun dunyoda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning har bir sohasi va tarmoqlariga jadallik bilan kirib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston iqtisodiyoti ham eng so'nggi texnologiyalarni qo'llash yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirmoqda. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligi sohalariga eng so'nggi zamonaviy texnologiyalarni olib kirish kabi muhim vazifalar ustuvor maqsad sifatida qo'yilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat, iqtisodiyot, sanoat.

Аннотация: Цифровые технологии стремительно проникают в каждую сферу и отрасль экономики по всему миру. В частности, экономика Узбекистана также реализует множество инициатив по применению новейших технологий. В рамках стратегии "Цифровой Узбекистан - 2030" поставлены важные цели по развитию цифровой экономики в Узбекистане, а также внедрению новейших современных технологий в таких секторах, как образование, здравоохранение и сельское хозяйство.

Ключевые слова: искусственный интеллект, цифровая экономика, электронное правительство, экономика, промышленность.

Abstract: Digital technologies are rapidly penetrating every sector and industry of the economy worldwide. In particular, Uzbekistan's economy is also implementing many initiatives to apply the latest technologies. Within the framework of the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy, important goals have been set to develop the digital economy in Uzbekistan, and to introduce the latest modern technologies in sectors such as education, healthcare, and agriculture.

Keywords: artificial intelligence, digital economy, e-government, economy, industry.

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida “Sun’iy intellekt” hamma sohalarda keng qo’llanilmoqda. To’rtinchi sanoat inqilobining asosi hisoblangan sun’iy intellektni iqtisodiyot sohasiga tadbiq etish hozirgi zamonning asosiy talabi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror doirasida 2030-yilga qadar erishish ko‘zda tutilgan maqsadli ko‘rsatkichlar belgilab o‘tilgan, jumladan:

-sun’iy intellekt bilan yaratilgan raqamli mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar miqdorini 1,5 milliard AQSH dollariga yetkazish;

- elektron hukumatni rivojlanlantirish doirasida yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida sun’iy intellekt asosida ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari hissasini 10 foizga yetkazish;

-sun’iy intellekt bilan shug‘ullanuvchi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish shuningdek yuqori quvvatda ishlaydigan hisoblash serverlarini ishga tushirish:

-O‘zbekiston Respublikasini sun’iy intellektga tayyorlik indeksida (Government AI Readiness Index) yuqori 50 ta mamlakat qatoriga kiritish ko‘zda tutilgan.


Sun’iy intellekt yarim asrdan ko‘proq vaqt mobaynida o‘rganib kelinmoqda. Hozirgi kunda ko‘plab olimlar o‘rtasida “Kelajakda sun’iy intellekt bizga xavf tug‘diradimi?”, “Sun’iy intellekt judayam rivojlanib ketib insoniyatni qirib tashlamaydimi?” degan savollar bilan bahslashuv ketmoqda. Bir guruh olimlar sun’iy intellekt bizni taraqqiyotimizning asosi, ular bizni qiyin ishimizni oson qilish uchun yaratilgan deb hisoblashsa, boshqa olimlar esa sun’iy intellekt rivojlanib ketib bizni qirib tashlashdi degan xavotirda. Ilon maskning fikricha sun’iy intellekt bizga kelajakda xavf tug‘diradi va keyingi 10 yillikda insonlarni ish o‘rnini robotlar egallaydi degan fikrda. O‘zi sun’iy intellekt nima? Sun’iy intellekt bu inson xarakterlariga taqlid qiluvchi dastur hisoblanadi. Sun’iy intellektning hozirgi kunda asosiy 3 ta turga ajratish mumkin. Bular:

1.ML(Machine Learning) - Sun’iy intellektning bu sohasi ma’lumotlarni yig‘adi, ularni tahlil qiladi, ularga asoslanib qaror chiqaradi.

2.CV(Computer Vision) - Sun’iy intellektning bu sohasida ko‘z bilan ko‘rib tahlil qilinadi.

3.NLP(Natural Language Processing) – Sun’iy intellektning bu sohasida asosan tillar o‘rganiladi, tahlil qilinadi, tarjima qilinadi.

Hozirgacha insoniyat tarixida 4 ta sanoat inqilobi mavjud (1-rasm).



1-rasm. Sanoat inqilobining bosqichlari

Insoniyat bularning 3 tasini bosib o'tib 4-sini boshidan kechirmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari orqali birinchi 3 ta sanoat inqilobida yaratilgan texnologiyalarni inson omilisiz boshqaradi, nazorat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham sun'iy intellekt rivojlanishi uchun ko'plab ishlar olib borilmoqda, jumladan, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, ta'lim sohalarida ham sun'iy intellekt texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Bugungi kunda ko'plab axoliga xizmat ko'rsatuvchi sohalaridan biri hisoblangan banklarda ham sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida mijozlarga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'ymoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga sun'iy intellektni firibgarlikni oldini olish tizimlari va xavf-xatarlarni boshqarish tizimlariga integratsiya qilishga ko'rsatma berildi. Bu sun'iy intellekt texnologiyalarini yaratish uchun dasturchilar kerak bo'ladi. Sun'iy intellekt sohasi bo'yicha dasturchilarni tayyorlash bo'yicha ham so'nggi yillarda rivojlanish kuzatilmoqda. Bu borada Mohirdev online ta'lim olish platformasida sun'iy intellekt bo'yicha bir qancha kurslar topishingiz mumkin.

Buyuk Britaniyaning mamlakatlarning sun'iy intellektga tayyorlik ko'rsatkichini aniqlaydigan Oxford Insights kompaniyasi tomonidan mamlakatlar reytingi aniqlandi. O'zbekiston sun'iy intellektga tayyorlik indeksida 2022-yil yakunlariga ko'ra 181 ta davlat ichidan 44,51 ball bilan 79-o'rinni egalladi. Bu o'tgan yilgiga nisbatan 14 ta pog'ona yuqoridir. Yillar kesimida qaralganda O'zbekiston:

- 2019 yilda 194 ta davlat ichida 158-o'rinda;
- 2020 yilda 172 ta davlat ichida 95-o'rinda;
- 2021 yilda 160 ta davlat ichida 93-o'rinda qayd etilgan.

Shuni tan olish kerakki, bugungi kunda O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirish yetarli darajada infratuzilma mavjud emas. Bu o'z-o'zidan sun'iy

intellekt rivojlanishi uchun davlat budjetidan mablag' ajratish zarurligini ko'rsatadi. Xulosa shuki – biz xoxlaymizmi-yo'qmi sun'iy intellekt O'zbekistonda baribir rivojlanadi. Albatta O'zbekistondayam sun'iy intellektni rivojlantirish uchun uning xavf-xatarlarini ham hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. LEX.UZ - O'zbekiston qonunchiligi
2. AI IN UZBEKISTAN: PIONEERING A TECHNOLOGICAL TRANSFORMATION | Educational Research in Universal Sciences
3. The development of artificial intelligence in Uzbekistan under discussion
4. O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Nimalar belgilanmoqda? – Spot
5. ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DIGITAL TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN
6. Journal of Electronic Business & Digital Economics | Emerald Insight
7. SUN'IY INTELLEKTNING RAQAMLI IQDISOTIYOTGA TA'SIRI | The Journal of Economics, Finance and Innovation
8. (PDF) SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI